

**TURKISTON TARAQQIYPARVARLARI (MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY
FAOLIYATI MISOLIDA)****I.M. Xaydarov****Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası
professori, tarix fanlari doktori (DSc).
e-mail: izzatillakhon@gmail.com****Nurjovov Diyorbek****Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
“Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi
e-mail: diyorbekofficial94@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20136004>****ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Turkiston o‘lkasida XX asrning birinchi choragida rivojlangan taraqqiyparvarlik harakatining mohiyati va xususiyatlarini Mahmudxo‘ja Behbudiy shaxsiyati va ko‘p qirrali faoliyati misolida ochib beradi. Jadidchilik g‘oyalarining amaliyotdagi ko‘rinishi va mustamlaka davridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Turkiston taraqqiyparvarlari, Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, islohot harakati.

АННОТАЦИЯ

Данное исследование раскрывает сущность и особенности движения прогрессистов, развивавшегося в Туркестанском крае в первой четверти XX века, на примере личности и многогранной деятельности Махмудходжа Бехбуди. Анализируются практические проявления идей джадидизма и их роль в общественно-политических процессах периода колониального господства.

Ключевые слова: Туркестанские прогрессисты, Махмудходжа Бехбуди, джадидизм, просветительство, национальное пробуждение, реформаторское движение.

ANNOTATION

This research reveals the essence and characteristics of the reformist movement that developed in Turkestan during the first quarter of the 20th century through the personality and multifaceted activities of Mahmudkhoja Behbudi. The study analyzes the practical manifestations of Jadid ideas and their role in the socio-political processes of the colonial period.

Keywords: Turkestan reformers, Mahmudkhoja Behbudi, Jadidism, enlightenment, national awakening, reform movement.

Kirish. Turkistonda o‘rnatilgan mustamlakachilik zulmi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yanada kuchaydi, iqtisodiy jihatdan mahalliy xalqni kutubxonasi talash, ezish bilan birga, ularni jaholatda, savodsizlikda tutib turish, ma‘naviy qashshoqlantirishga intilar edi. Mustamlakachilar shu maqsadda o‘lkaga chinovniklar, harbiylar, bankirlar, savdo-sanoatchilar, muhandis-texniklar, ruhoniylar, ilmiy kuchlar, ishchilar, mujiklardan iborat malaylarini safarbar etgan edi. Zolimlar qanchalik urinmasin, mahalliy aholining hurlik, ozodlik uchun intilishini so‘ndirolmadi, milliy-ozodlik harakati kuchayib bordi. Tarixiy vaziyat millat ravnaqini o‘ylovchi ziyolilar, mahalliy buijuaziya vakillari, ulamolar orasidan xalqni uyg‘otish, milliy ongini oshirish, birlashtirish uchun kurashuvchi kuchlarni tayyorlab yetishtirdi. Sharq

bilan G'arbni taqqoslab musulmonlar va turkiylar dunyosi, xususan, Rossiya tasarrufiga olingan musulmonlarning jahon taraqqiyotidan uzilib qolayotganini qrim-tatar farzandi Ismoil Gaspirali (1851-1914) birinchi bo'lib angladi. U turkiy xalqlardagi jaholatni yo'q qilish, ma'naviyat-ma'rifat orqali taraqqiy topgan mamlakatlar darajasiga ko'tarilish harakatini boshlab berdi. Ismoil Gaspirali maorifni isloh qilish, maktablarda dunyoviy fanlarni o'qitish masalasini ko'tardi. U 1884-yilda Qrimdagi Boqchasaroy shahrida jadid maktabiga asos soldi. “Jadid” arabcha so'z bo'lib “yangi” degan ma'noni bildiradi. U o'zi tashkil etgan maktab o'quvchilari uchun o'quv dasturi tuzdi va darsliklar yozdi.¹ U 40 kun ichida 12 o'quvchining savodini chiqarib, tezda shuhrat qozondi. “Tarjimon” gazetasini chiqarib, o'z g'oyalarini yoydi. 1888-yilda “Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh” kitobini nashr etib, jadid maktablarining qurilishi, dars o'tish mazmuni, jihozlanishi, sinov va imtihonlar olish usullarini bayon etib berdi. Ismoil Gaspirali g'oyalari Turkistonga ham kirib keldi. 1893-yilda Turkistonga kelib, ilg'or ziyolilar bilan uchrashdi, Buxoro amiri huzurida bo'lib bitta jadid maktabi ochishga rozilik oldi. Turkistonlik ziyolilar jadidchilikni yoqlab maorifni isloh qilish, “Usuli jadid” maktablarini tashkil etishga kirishdilar.

Adabiyotlar sharxi. Usmonov Q. “O'zbekiston tarixi”² darsligida jadidchilik harakati Turkiston tarixining muhim bosqichi sifatida yoritilgan. Muallif Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatini milliy uyg'onish va ma'rifatparvarlik harakati bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Asarda Behbudiyning yangi usul maktablari tashkil etish va xalqni ilm-ma'rifatga chorlashdagi xizmatlari tarixiy jihatdan asoslab berilgan. Ziyovuddin Abdurashidovning “Jadidlar: Mahmudxo'ja Behbudiy”³ asari Behbudiy hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan eng muhim tadqiqotlardan biridir. Unda jadid mutafakkirining siyosiy qarashlari, publitsistik faoliyati va Turkiston taraqqiyoti yo'lidagi kurashi batafsil yoritiladi. Muallif Behbudiyning milliy tafakkur va modernizatsiya g'oyalarining yetakchi targ'ibotchisi sifatida baholaydi. Hamidulla Boltaboyevning “Abdurauf Fitrat”⁴ nomli kitobida jadidlar o'rtasidagi g'oyaviy hamkorlik masalalari ochib berilgan. Asarda Fitrat va Behbudiy qarashlarining yaqinligi, ularning millat taraqqiyoti va ta'lim islohoti borasidagi umumiy maqsadlari ko'rsatib o'tiladi. B. Karimovning “Jadidlar: Abdulla Qodiriy”⁵ asarida jadid adabiyoti va milliy uyg'onish masalalari yoritilgan ekan, Behbudiy jadid matbuoti va ma'rifiy harakatning asoschilaridan biri sifatida tilga olinadi. Muallif jadidlarning adabiyot orqali xalq ongini uyg'otishdagi o'rnini alohida ta'kidlaydi. S. Xolboyevning “Jadidlar: Munavvarqori Abdurashidxonov”⁶ nomli kitobida Turkiston jadidlarining ma'rifiy faoliyati keng tahlil qilingan. Asarda Behbudiy va Munavvarqorining yangi usul ta'limini rivojlantirish hamda yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalash yo'lidagi hamkorligi yoritiladi. O. Olimovning “Jadidlar: Abdulla Avloniy”⁷ asarida jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim va madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ko'rsatib

¹ Abdurashidov Z. *Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy.* – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. — B. 5

² Usmonov Q. *O'zbekiston tarixi.* – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.

³ Abdurashidov Z. *Jadidlar Mahmudxo'ja Behbudiy.* – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi -2022.

⁴ Boltaboyev H. *Abdurauf Fitrat.* – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi -2022.

⁵ Karimov B. *Jadidlar Abdulla Qodiriy.* – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi -2022.

⁶ Xolboyev S. *Jadidlar Munavvarqori Abdurashidxonov.* – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi -2022.

⁷ Olimov O. *Jadidlar Abdulla Avloniy.* – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi -2022

beriladi. Behbudiy Avloniy bilan bir qatorda Turkiston jadidchilik harakatining yetuk namoyandasi sifatida baholanadi.

Asosiy qism. Turkiston jadidlariga Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqa o‘nlab milliy ziyolilar rahnamolik qildilar. Ular dastlab maorifni isloh qilish yo‘lidan bordilar. “Usuli jadid” maktablari tarmog‘i kengayib bordi, ularda diniy ta‘limot bilan birga tibbiyot, hikmat, kimyo, nujum, handasa kabi dunyoviy bilimlar o‘rgatildi, savod chiqarish tezlashtirildi. Talabalarga Turkiston, turkiylar tarixini o‘rgatishga alohida e‘tibor berildiki, bu ularning milliy ongini uyg‘otishga, jamiyatni etnik jihatdan birlashtirishga xizmat qildirdi. M.Behbudiyning “O‘z urug‘i otini bilmagan, yetti otasini tanimagan qul-manqurtdir” degan so‘zlari talabalarni milliy o‘zligini anglashga chaqirar edi. Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, M. Behbudiyning “Kitobatul atfol”, “Bolalar maktubi”, “Muxtasar tarixi islom”, “Jug‘rofiya”, A. Avloniyning “Adabiyot”, “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston”, “Maktab gulistoni” kabi darsliklari milliy maktab va milliy tarbiyani yuqori saviyaga ko‘tarishga xizmat qildi. Jadid maktablarida har tomonlama bilimli, ma‘naviy yetuk, o‘z xalqining tarixini va dunyo ishlarini yaxshi o‘zlashtirgan kadrlar tayyorlab chiqarildi. Jadidlar yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish tashabbusi bilan chiqdilar. Boy tabaqaning ilg‘or vakillari jadidlarning bu harakatini ma‘qullab, mablag‘ bilan ko‘maklashdilar. Ko‘pgina umidli yoshlar Germaniya, Misr, Turkiya va Rossiyaning markaziy shaharlariga o‘qishga yuborildi. 1910-yili Buxoroda mudarris Hoji Rafiy va boshqalar “Bolalar tarbiyasi” xayriya jamiyatini tashkil etib, 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda 30 ta talabani Turkiyaga o‘qishga jo‘natdi. 1909-yilda Munavvarqori tuzgan “Jamiyati xayriya” ham miskin va ojiz talabalarga yordam berar, yoshlarni chet elga o‘qishga yuborishga yordamlashar edi. Jadidlar Turkistonda milliy matbuotga asos soldilar. Munavvarqori 1906-yilda “Xurshid” “Quyosh” jurnalini tashkil etib, unga o‘zi muharrirlik qildi. Jurnal xalqning o‘z haq-huquqlarini tanishiga, milliy uyg‘onishga xizmat qildi. Ammo mustamlakachi ma‘murlar tezda jurnalni chiqarishni man qildilar.⁸

Ular Rossiya imperiyasi tasarrufidagi turkiy xalqlarga, Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiyagacha borib yetardi. Taraqqiyparvar o‘zbek ziyolilarining yetakchisi Asadullaxo‘ja o‘g‘li Ubaydullaxo‘ja 1913-yilda “Taraqqiyparvar” deb nom olgan ziyolilarning firqasini tuzadi va 1914-yilda firqaning “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona” gazetalari chiqariladi. Bu gazetalarda sahifalarida e‘lon qilingan maqolalar ommani mustabid tuzumga qarshi qo‘zg‘atishga xizmat qildi. Jadidlar milliy teatrga asos soldilar. Munavvarqori rahnamoligida 1913-yilda musulmon drama san‘ati havaskorlari jamiyati – “Turon” truppassi tuzildi. 1914-yil 27-fevralda. Toshkentdagi “Kolizey” teatri binosida o‘zbek milliy teatrining birinchi rasmiy ochilish marosimi bo‘ldi. Munavvarqori o‘zbek milliy teatrining birinchi pardasini ochar ekan shunday degan edi: “Turkiston tilida hanuz bir teatr o‘ynalmag‘onligi barchangizga ma‘lumdir”... Teatrning asl ma‘nosi “ibratxona” yoki “ulug‘lar maktabi” degan so‘zdir. “Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o‘xshaydurki, unga har kim kirsam o‘zining husn va qabihini, ayb va nuqsonini ko‘rib ibrat olur”. O‘sha kuni sahnada M.Behbudiyning “Padarkush” pyesasi namoyish etildi. Unda islom dinining “To‘y”, “Zaharli hayot”, “Juvonboz”, “Baxtsiz kuyov” pyesalarida xotin-qizlarning huquqsizligi, ko‘pxotinlik, majburiy nikoh oqibatlarini kabi muammolar yoritiladi. Milliy teatr san‘ati odamlarga millatda mavjud bo‘lgan qusurlar va ijobiy tomonlarni tushuntiruvchi oyna bo‘lib xizmat qildi. Jadidlar matbuoti va teatrida ayrim

⁸Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006. – B. 245

mutaassib ruhoniylarning poraxo'rligi, axloqsizligi ham qattiq tanqid ostiga olindi. Abdurauf Fitrat “Munozara” nomli asarida Buxoro ulamalarining nodonligi va poraxo'rligini ochib tashladi. “Hind sayyohining sarguzashtlari” asarida esa Buxoro, Qarshi va boshqa shaharlardagi iqtisodiy tanazzulga ayrim ruhoniylarning o'z mavqeyini suiiste'mol qilganliklarini asosiy sabab qilib ko'rsatdi. Jadidchi jurnalist va dramaturglar nashavandlik, kashandalik, zinogarlik, fohishalik kabi illatlarni qoralashdi. Jadidlar ijtimoiy va hududiy birlik to'g'risidagi masalalarni ko'tarib, xalqni milliy va diniy birlikka, jipslashishga, hududiy birlikka chaqirdi, ijtimoiy ongini XX asr darajasiga ko'tarishga intildilar.⁹

O'rta Osiyo jadidlarining Otasi Mahmudxo'ja Behbudiy biografiyasi haqida. Hoji Muin Behbudiyning biografiyasini yozar ekan, uni 1875-yilning 19-yanvarida (hijriy 1291-yil 10-zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida diniy olim oilasida dunyoga kelganligini ta'kidlaydi. Ammo oxirgi olib borilgan tadqiqotlarga tayanadigan bo'lsak, Behbudiy tug'ilgan sana va joyi biroz boshqacha ko'rsatilmogda. Taniqli olim Sirojiddin Ahmedovning ta'kidlashicha, Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yil 30-yanvar payshanba kuni Samarqand shahrining Yomini mahallasida tavallud topgan. Olim bu sanani isbot qilish uchun yetarlicha dalil va isbotlarni keltiradi. Hoji Muinning ma'lumot berishicha, Mahmudxo'ja Behbudiyning otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li Turkistonlik, Ahmad Yassaviyning avlodlaridan, ona tomondan bobosi Niyozxo'ja Urganchlik bo'lib, amir Shohmurod hukmronlik qilgan davrda Samarqandga ko'chib kelgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 6-7 yoshlarida tog'asi Muhammad Siddiq huzurida o'qib savod chiqaradi, otasi Behbudxo'jadan esa Qur'ondan saboq olib, qisqa muddatda qorilik martabasiga erishadi. 15 yoshga kirganda yana bir tog'asi Mulla Odil mudarrislik qilgan madrasada tahsilini davom ettiradi va arab tili grammatikasi, aqida va shariat qonunlari bo'yicha bilimlarini kengaytiradi. 1893-yili onasi, 1894-yili esa otasi vafot etadi. Otasi vafotidan biroz avval uylangan Behbudiy to'rt o'g'il, bir qiz ko'rgan. Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ma'lumotlar nihoyatda kam. Sirojiddin Ahmedov bergan ma'lumotga ko'ra, Behbudiy dastlab Samarqand madrasasida, keyinroq Buxoro madrasalaridan birida tahsil olgan. Behbudiy Buxoro madrasalarida tahsil olar ekan, u yerdagi mullalar bilan kelisha olmagan bo'lsa Samarqandga qaytib kelgan. Bu fakt haqiqatga yaqin, sababi, Mahmudxo'ja Behbudiy 1915-yili “Туркестанские ведомости” gazetasining muxbiri Grigoriy Andreyev bilan suhbatda Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsil olgani haqida so'zlaydi va bu madrasalardagi mulla, qozi va imomlarning johilligidan shikoyat qiladi. 18 yoshiga yetganida Behbudiy madrasa ta'limini tugatadi va Samarqand viloyati Chashmaob volostida qozilik qilgan tog'asi Muhammad Siddiq qo'l ostida mirzalik lavozimida ishlay boshlaydi¹⁰.

Tog'asi huzurida ikki yillik faoliyat, tog'asi qozilikdan bo'shagandan keyin Kobud volosti qozisi Mulla Zubayr Yaxshiboy o'g'li qo'lida mirzalik ishini davom ettirishi uning dunyoqarashi va kelajak faoliyatida katta o'zgarish yasaydi. U shariat qonunlarini puxta o'zlashtiradi va muftiy lavozimini egallaydi. 1916-yilgacha muftilik faoliyati bilan muntazam shug'ullanadi. Bu orada qisqa vaqt qozi vazifasini ham bajargan, ammo ma'rifatparvarlik ishlariga berilish, xususan, matbaachilik bilan shug'ullanish katta mehnat va mablag' talab qilgani bo'lsa Behbudiy qozilikdan voz kechib, muftilikning yonida tijorat bilan shug'ullanishga majbur bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 1893-yildan Rossiya va xorijiy mamlakatlarda nashr etiluvchi turkiy va

⁹Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006. – B. 246.

¹⁰Abdurashidov Z. Jadidlar Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 15.

forsiy matbuot bilan tanishib borgan. Zamon ahvoli, bo'lib turgan ijtimoiy va siyosiy voqealar, turli yangiliklarni kuzatadi. 1899–1900-yillarda Behbudiy buxorolik do'sti Hoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. “1318 sanayi hijriyasi tavofi Baytullog'a Kavkaz yo'li ila Istanbul va Misral-Qohira vositasila borib edim. Muddati safarim sakkiz oydan ziyoda cho'zilub edi”, yozadi Behbudiy bu safar haqida. Bu sayohat, dunyo ko'rish, kezish izsiz ketmadi. Sayohat Behbudiyning dunyoqarashini, keyingi faoliyatini tubdan o'zgartirib yubordi. Behbudiy Turkiston xalqlari turmushidagi qoloqlik, abgor ijtimoiy ahvol, “jaholat uyi”ga aylangan maktab va madrasa borasidagi qarashlarini tamomila o'zgartirib yubordi. Adib Xolidning ta'kidlashicha, Behbudiy ayni shu sayohat davomida Usmoniylar davlati hamda Misrda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni kuzatish barobarida ijtimoiy sohadagi islohotlarda yetakchilik qilgan shaxslar bilan ham muloqot qilish imkoniga ega bo'lgan. Oradan 8 oy vaqt o'tib, u Samarqandga qaytishi bilan “Tarjimon” gazetasiga obuna bo'ldi. Orzulari chil-chil bo'lgan Behbudiy – 1919-yilning bahorida 25-martda Shahrisabzda qo'lga olinib, sirli bir tusda Qarshi shahrida qatl qilinadi. Uning qatli haqidagi xabar o'sha paytdagi poytaxt Samarqandga rosa bir yildan keyin ma'lum bo'ladi¹¹.

1920-yilning aprelida butun Turkiston motam tutadi. O'nlab marsiyalar yoziladi. Fitrat “Behbudiyning sag'anasini izladim” deb nomlangan she'r bitadi. Jadidlar Ayniy Behbudiyini eslab: Sani mundin buyon Turon ko'rolurmu, ko'rolmasmu? Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasm – misralari bilan boshlanuvchi she'r yozadi.

Mashhur Cho'lpon ham Behbudiyning fojiali o'ldirilganiga bag'ishlab she'rlar yozdi. Qarshi shahri 1926 -37-yillarda 11 yil Behbudiy nomi bilan yuritildi. Biroq uning asl qiyofasi xalqdan sir saqlandi. Adib nomining abadiylashtirilishi shunchaki bir niqob edi. Qarshi shahriga uning nomi qo'yilgan o'sha 1926-yildayoq u mansub bo'lgan jadidchilikni aksilingilobiy, aksil sho'roviy harakat sifatida qoralash kampaniyasi boshlab yuborilgan edi.

Xulosa

Xulosa qilib aytgan, Behbudiy jadidlarning eng yoshi ulug'i ham hisoblangan. U o'z hisobidan maktablar ochdi teatr truppasini tuzdi, jamiyatdagi nohaqliklarni ochib berdi, uning padarkush asari ham aholiga katta ta'sir o'tkazgan. Uning faoliyati ilm olish va berish bilan o'tdi, u amaldorlarning sudxo'rliqi, qonunlarni o'z manfaatiga yo'lida foydalanayotganini jim kuzatib turolmadi chalasavod diniy mutassiblik eskicha fikrlarga qarshi chiqdi. O'z asarlarida aholini savodsizlikni tugatish jaholatga qarshi kurashish milliy ongini shakllantirish shuningdek u tuzgan teatr truppalari jamiyatdagi nohaqliklarni ochib bergan. U shu yo'l bilan jamiyatni yangilash teatr va matbuotni rivojlantirish orqali jamiyatni uyg'otish kerakligini tushunar edi.

Lekin bu yo'l turli qarama-qarshiliklarga uchradi birinchi bo'lib diniy mutassib ulamolarning keyin esa amirlikning qarshiligiga uchradi bu esa ularning siyosatiga putur yetkazishni tushundi, chunki uning yuritgan siyosati amirlikdan keskin islohotlarni talab qilar edi shuning uchun shaxsni 1919-yilda Qarshida hibsga olib qatl etildi. Uning o'limi sir tutildi lekin u shaxsni o'limi jadidlarni chuqur qayg'uga botirdi, ekin islohotlar to'xtab qolmadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi: Darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.

¹¹Karimov B. Jadidlar. – Toshkent: Toshkent-Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 10-11.

2. Abdurashidov Z. Jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiy Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi -2022.
3. Boltaboyev H. Abdurauf Fitrat Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi -2022.
4. Karimov B. Jadidlar Abdulla Qodiriy Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi -2022.
5. Xolboyev S. Jadidlar Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi -2022.
6. Olimov O. Jadidlar Abdulla Avloniy Toshkent Yoshlar nashriyot uyi -2022.